



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2024 yil “4” yanvar **Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig‘ilishining**
01-12021 - son **6-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«27» dekabr 2023-yil

Raislik qiluvchi: A Sh.A.Boymuradov

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori v.v.b, professor

Qatnashdilar:

Toshkent tibbiyot akademiyasining
Ilmiy kengashi a‘zolari
(ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI

1.“Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da akademiyada amalga oshirilgan ishlar.

Ma‘ruzachi – Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori Bobomuratov Turdiqul Akramovich.

2. Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma‘lumotli hamshira fakulteti hisoboti.

Ma‘ruzachi – Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma‘lumotli hamshira fakulteti dekani Aliyev Sarvar Ibodullayevich.

3. Dissertatsiya, monografiya va o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

Ma‘ruzachi – O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Muminova Ziyoda Abrarovna.

4. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

QAROR QILADI:

1.Kun tartibining birinchi masalasi bo'yicha "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da akademiya amalga oshirilgan ishlar" mavzusi bo'yicha Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor Bobomuratov Turdiqul Akramovichning ma'lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

1.1. Toshkent tibbiyot akademiyasida (keyin o'rinlarda Akademiya) jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun "Sport klubi" faoliyati samarali tashkil etilsin va sport jihozlari (futbol va voleybol to'plari, voleybol setkalari, tennis stollari va raketkalar, kubok, medallar va h.k.) bilan ta'minlansin.

Mas'ul: Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor v.v.b. S.I.Dustmurodov, Bosh buxgalter B.I.Alijonova, "Shifokor" sport majmuasi rahbari Sh.F.Yermatov.

Muddat: 2024-yil, yanvar oyi.

1.2. Akademiyaning Xotin-qizlar kengashi faoliyati kuchaytirilsin. Talaba qizlar o'rtasida odob axloq kodeksi, ichki tartib qoidalari, shuningdek, jinoyatchilikni oldini olish mavzusiga qaratilgan profilaktik tadbirlar tashkil etilsin.

Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi H.K.Махкамova, barcha fakultet dekanlari.

Muddat: doimiy.

1.3. Kafedra mudirlari va professor-o'qituvchilarning talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlar olib borishlari hamda Talabalar turar joylariga tashriflarini samarali tashkil etilishlari ta'minlansin.

Mas'ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: doimiy.

1.4. Kafedra professor-o'qituvchilari va xodimlarning Davlat muzeylariga tashriflarini tashkil qilinishi ta'minlansin.

Mas'ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, bo'lim boshliqlari.

Muddat: doimiy.

1.5. Talabalar turar joylarida talabalar uchun sharoitlarni yaxshilash choralari ko'rilsin, moddiy- texnik imkoniyatlari kuchaytirilsin.

Mas'ul: Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor v.v.b. S.I.Dustmurodov, TTJ direksiyasi direktori, Bosh muhandis A.Tursunov, Eksploatatsiya va xo'jalik boshqarmasi boshlig'i v.v.b X.R.Mamatov.

Muddat: 2024-yil, yanvar-fevral oyilari.

1.6. Talabalarni bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish maqsadida madaniyat uyi va badiiy havaskorlik to'garaklari uchun xonalar ajratilsin va ularning faoliyati, moddiy texnik imkoniyatlari kuchaytirilsin, talabalarni iqtidorini rivojlantirish va namoyon qilishlari uchun sharoitlar yaxshilansin.

Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor v.v.b. S.I.Dustmurodov, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i M.A.Xasanova, "Madaniyat uyi" uslubchisi M.A.Abdullaev.

Muddat: 2024-yil, yanvar-iyun oyilari.

1.7. Akademiya Talabalar kengashi faoliyatini yangi bosqichga olib chiqilishi ta'minlansin.

Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, barcha fakultet dekanlari, Talabalar kengashi raisi.

Muddat: 2024-yil, yanvar oyi.

1.8. "Toshkent tibbiyot akademiyasi xorijiy talabalarining odob-axloq normalari hamda xulq atvorining asosiy qoidalari" tasdiqlansin. Barcha xorijiy talabalarni ushbu qoidalar bilan tanishtirilishi ta'minlansin.

Mas'ul: Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.J.Isroilov, Xalqaro fakultet dekani J.X.Tursunov, Xalqaro bo'lim boshlig'i M.M.Jafarov, tyutorlar.

1.9. "Tyutorlar maktabi" faoliyati kuchaytirilsin. "Tyutorlar ishini tizimli tashkil etishning yangi mexanizmlari" mavzulariga qaratilgan seminarlar o'tkazilishi ta'minlansin.

Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Talabalarni turar joylari bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim boshlig'i A.U.Aliqulov, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i M.A.Xasanova.

Muddat: 2024-yil yanvar oyi.

2.Kun tartibining ikkinchi masalasi bo'yicha "Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti hisoboti" mavzusi bo'yicha Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti dekani Aliyev Sarvar Ibodullayevichning ma'lumoti qoniqarli deb hisoblansin hamda axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

2.1. Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti talabalarining HEMIS tizimida ma'lumotlarini qayta ko'rib chiqilishi va doimiy yangilab borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti dekani S.U.Aliyev, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024-yil, iyul oyi.

2.2. Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti ta'lim yo'nalishlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tishi uchun zarur hujjatlar shakllantirilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.Turaqulov, Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti dekani S.U.Aliyev, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024-yil, fevral oyi.

2.3. Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti kafedralarining o'quv, o'quv-uslubiy va ilmiy mahsulotlarini yaratilishi bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilsin, tuzilgan ishchi guruh tomonidan bajarilishining muddati, nazorat va monitoringi olib borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti dekani S.U.Aliyev, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023/2024 o'quv yili davomida.

2.4. Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti kafedralarining o'quv va klinik bazalarini zamonaviy darajada takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: Davolash ishlari bo'yicha prorektor M.Sh.Karimov, Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti dekani S.U.Aliyev.

Muddat: 2024- yil, yanvar oyi.

2.5. Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti kafedralarida o'quv jarayonini zamonaviy darajada va xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda doimiy ravishda olib borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti dekani S.U.Aliyev, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023/2024 o'quv yili davomida.

2.6. Akademiyaning farmatsiya, menejment, pediatriya, stomatologiya, biotibbiyot muhandisligi ta'lim yo'nalishlarining o'quv jarayoni 3 tilda (o'zbek, rus va ingliz), shu jumladan elektron shaklida, zamonaviy adabiyotlar bilan to'liq boyitilishi, yangi adabiyotlar yaratilishi bo'yicha buyurtmalar shakllantirilishi, xarid qilinishi hamda ijrochi va muddati aniq belgilangan holda bajarilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oirov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024-yil, yanvar-fevral oylari.

2.7. Akademiyada farmatsiya, menejment, pediatriya, stomatologiya, biotibbiyot muhandisligi ta'lim yo'nalishlari uchun kadrlar tayyorlash va saralash ishlari olib borilishi hamda malaka oshirish kurslari tashkil etilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillayeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023/2024 o'quv yili davomida.

2.8. Akademiya professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirilishi, zamonaviy talablarga muvofiq ilmiy izlanishlar hamda o'quv jarayonini olib borilishi, xorijiy Oliy ta'lim muassasalari va markazlari professor-o'qituvchilari bilan tajriba almashinuvini amalga oshirilishi maqsadida barcha kafedralar tomonidan har bir semestr davomida xalqaro o'quv – ilmiy konferensiyalar yoqori darajada tashkillashtirilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023/2024 o'quv yili davomida.

2.9. Akademiya professor –o'qituvchilarini malakasini oshirish, nufuzli chet el Oliy ta'lim muassasalari va markazlarining tajribasini o'rganish va amalda tadbiq etish maqsadida xodimlarni maqsadli xorijiy stajirovkalarga yuborish bo'yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.J.Israilov, Xalqaro bo'limi boshlig'i M.M.Jafarov, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023/2024- o'quv yili davomida.

2.10. Akademiyada oliy ma'lumotli hamshiralarni tayyorlash ta'lim yo'nalishidagi talabalarni nemis tiliga o'rgatish maqsadida kurslar tashkil etilishi bo'yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.J.Israilov, Xalqaro bo'limi boshlig'i M.M.Jafarov, Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti dekani S.U.Aliyev, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024- yil, yanvar-fevral oylari.

3. Kun tartibining keyingi masalasi "Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash" bo'yicha O'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i F.X. Azizova va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi. (1-va 2-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

4. **Turli masalalar** bo'yicha o'quv ishlari prorektori Sh.A.Boymuradov Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova so'zga chiqdilar.

4.1. "Ilm – fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda 1030-sonli qarorini bajarilishini ta'minlash maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023- yil 3-iyundagi 228-sonli qarori tahririda (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.06.2023 y., 09/23/228/0339-son) kiritilgan o'zgarishlariga muvofiq 2024-yil uchun Akademiya xodimlarining faoliyatini baholash bo'yicha quyidagi Ishchi guruh ro'yxati tasdiqlansin:

1. F.L.Azizova – ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais
2. M.Sh.Karimov – davolash ishlari bo'yicha prorektor, rais o'rinbosari
3. S.I.Do'stmuradov – bosh auditor
4. Z.A.Muminova–ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i
5. F.X.Azizova – o'quv bo'limi boshlig'i
6. R.I.Turakulov – ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i
7. S.M.Yusupova- Yuridik bo'limi boshlig'i
8. I.O.Otajonov-1-son davolash fakulteti dekani
9. A.A.Irnazarov-2-son davolash fakulteti dekani
10. A.A.Xamrayev- Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani
11. F.I.Salomova - Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof muhit muhofazasi va kimyo fakulteti dekani
12. S.U.Aliyev-Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti dekani
13. N.M.Nurullayeva - Malaka oshirish fakulteti dekani
14. D.X. Tursunov - Xalqaro fakulteti dekani
15. O.U. G'oirov-reja-moliya bo'limi boshlig'i
16. A.Z.Shaumarov-Otorinolarologiya va stomatologiya kafedrasida katta o'qituvchisi
17. J.A.Djurayev - Otorinolarologiya va stomatologiya kafedrasida dotsenti
18. B.A.Boboyev - 2-son Travmatologiya, ortopediya, harbiy dala jarrohlik va neyrojarrohlik kafedrasida assistenti.

4.2. Ushbu Ishchi komissiyaning huquqlari va javobgarligi, faoliyatini tashkil etish tartibi ishlab chiqilsin va tasdiqlash uchun kiritilsin.

4.3. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ko'rsatmasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarorida ilmiy va ta'lim tashkilotlari akkreditatsiyadan o'tgan ixtisosliklar bo'yicha taqsimlangan qabul kvotalaridan ortib qolgan o'rinlarni qayta taqsimot qilish Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Shunga muvofiq Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Ilm-fan va innovatsiyalar kengashining 2023-yil 22-dekabrda 32-son bayoni bilan tasdiqlangan "Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimida davlat budjeti mablag'lari hisobiga o'qitish bo'yicha 2024-yil uchun qabul kvotalarining ilmiy va ta'lim tashkilotlari bo'yicha taqsimoti" da Akademiyaning doktorantura (DSc) va tayanch doktorantura (PhD) institutiga kirish uchun ko'shimcha ajratilgan kvotalarga muvofiq (3 ta DSc va 1 ta PhD) tanlovga xujjat topshirgan ilovada (3-ilova) ko'rsatilgan talabgorlar ro'yxati tasdiqlansin.

4.4. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarini (doktorantura, tayanch doktorantura) 2022-2023-o'quv yillarida o'tgan va o'qish muddati tugagan doktorantlar (4-ilova) safidan chiqarilsin.

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Ijrochi: G.Ismailova
ID: 530248
Sana: 04.01.2024